



## KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASINING KOMPYUTER LINGVISTIKASI FANIDAGI AHAMIYATI (LUG'ATLAR TIPOLOGIYASI MISOLIDA)

**Maxmudova Erkinoy**

*Termiz davlat universiteti Filologiya fakulteti*

*3-bosqich 420-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Abdualimova Gulhayo Hasanovna*

**Annotatsiya:** Maqolada kompyuter leksikografiyasini sohasining lug'atlar tipologiyasiga yo'nalishi boyicha fikr yuritiladi.. Bundan tashqari maqolada xorijda va Özbekistonda kompyuter leksikografiyasini boyicha olib borilgan tadqiqotlarni , özbek olimlarining kompyuter leksikografiyasini va lug'atlar tipologiyasiga boyicha olib borilgan izlanishlarinni kòrishimiz mumkin . Lugatlar tipologiyasi bugungi kundagi yutuqlari boyicha qisqacha va mulohazalar, bahslar keltirilgan.

**Абстрактный:** В статье рассматривается направление области компьютерной лексикографии на типологию словарей. Кроме того, в статье можно увидеть исследования, проведенные по компьютерной лексикографии за рубежом и в Узбекистане, исследования, проведенные узбекскими учеными по компьютерной лексикографии и типологии словарей. Представлены краткие комментарии и дискуссии о сегодняшних достижениях словарной типологии.

**Abstract:** The article discusses the direction of the field of computer lexicography to the typology of dictionaries. In addition, in the article we can see the researches conducted on computer lexicography abroad and in Uzbekistan, the researches conducted by Uzbek scientists on computer lexicography and typology of dictionaries. Brief comments and debates on today's achievements of dictionary typology are presented.

**Kaliti so'zlar:** lug'atlar tipologiyasi, tezaurs, lingvo lug'atlar, chastatali lug'atlar, konkordans lug'atlar, ontologik modellar, terminalogiya va terminografiya, lingvistika , tilshunoslik

**Ключевые слова:** типология словарей, тезаурус, лингвословари, частотные словари, конкордансные словари, онтологические модели, терминология и терминография, языкознание, лингвистика.

**Key words:** typology of dictionaries, thesaurus, linguo dictionaries, frequency dictionaries, concordance dictionaries, ontological models, terminology and terminography, linguistics, linguistics

Bugungi kundalik turmushimizning har bir sohasiga kompyuter mexanizmlari jadallik bilan kirib kelmoqda. XXI asr kompyuter asriga aylanib ulgurdi. Bizning



ehtiyojlarimiz zamonaviy usulda yangi dasturlar ommaviy internet vositalari orqali to'laqonli qondirilyapti. Burning bir misolida kompyuter leksikografiyasini sohasining o'zidagi juda keng imkoniyatlarini aytishimiz mungkin. Bu yo'naliш o'z ichiga lug'atlar tipologiyasi, tezaurs, lingvo lug'atlar, chastatali lug'atlar, konkordans lug'atlar, ontologik modellar, terminalogiya va terminografiya kabi turli atamalar, sohaviy birliklarni qamrab oladi. Men Mana shular ichidan lug'atlar tipalogiyasiga to'xtalib o'tmoqchiman. Chunki, kompyuter leksikografiyasini juda keng va ko'p qamrovli soha. Uning har bir qirralari o'zida ulkan ilmiy dalillarga asoslangan ma'lumotlarni mujassamlashtiradi.

O'zbek lug'atchilik juda uzoq tarixga ega bo'lib, uning ilk na'munalari Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridir. Biz Bilamizki, davrlar almashishi bilan qomusiy va leksik lug'atlar shakllanib, takomillashib bordir va bormoqda. Hozirgi globallashuv jararayonida nafaqat kishilarning tirmish tarzi va madaniyatni, balki ularning muloqot almashuvining asosiy vositasi bolgan tilga ham o'z tasirini o'tkazdi.

Leksikografik tadqiqotlar rivojlangan sari kommunikatsiya tilni yaratish prinsiplarini o'rgatuvchi interlingvistika fani yuzaga keldi. Bu esa kompyuter lingvistikasidan yangi yo'naliшlar paydo bõlishiga sabab boldi. Leksikografiya tilshunoslik fanining amaliy sohalaridan biri hisoblanadi. U yunoncha «lexikos» - «so'z», «lug'at», «grapho» - "yozaman" degan ma'nolami anglatadi. Leksikografiya bo'limida lug'atlar, ulami tuzish yo'llari va tamoyillari

O'r ganiladi. Avtomatizatsiya ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi natijasida lug'atlami elektron holatda yaratish imkoniyati yuzaga keldi. Kompyuter yordamida lug'atlar bilan ishslashning optimal lashuvi natijasida kompyuter leksikografiyasini yo'naliш shakllandidi. Kompyuter leksikografiyasini amaliy tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda lingvistik va dasturiy ta'minot asosida ishlaydigan, kodlash va dekodlash prinsipi asosida yaratilgan kompyuter lug'atlar, ulami tuzish dasturlari, algoritmlari o'r ganiladi. Mazkur sohaning rivojla nishi natijasida turli nomlarda elektron lug'atlar yaratilmoqda. Eng mashhur elektron lug'atlar sirasiga **CONTEXT, ABBY LINGVO, MULTI-TRAN, POLYGLOSSUM, MULTILEKS** kabilar kiradi.

L.I.Kolodnyajnaya lug'atshunoslik va tarjima borasida 2 xil yondashuv borligini takidlaydi. Lug'atshunoslikni an'anaviy hamda raqamli kabi turlarga ajratsa, tarjima bodqichlarini leksikosentrik va slovorsentrik tasniflaydi.

Ingliz va rus tiishunosligida kompyuter lug'atlari borasida izlanishlar amalgalashirilgan. Kitobiy lug'atlar va elektron lug'atlamining farqi quyidagilarda ko'rindi:

1. Kitobiy lug'atlar kartotekalar asosida tuziladi. Elektron lug'atlar (elektron kartotekalar) asosida yaratiladi.

2. Kitobiy lug‘atlar qo‘Myozma holatda, kompyuter lug‘atlari elektron variantda tuziladi.

3. Kitobiy lug‘atlar qo‘lyozma holida tahrir qilinadi; elektron lug‘atlar nisbatan tayyor lingvistik baza asosida yaratiladi.

4. Kitobiy lug‘atlar bosma holida nashr etiladi; elektron lug‘atlarda lingvistik ta’midot dasturiy ta’midot bilan uyg‘unlashtiriladi. 5. Kitobiy lug‘atlar tuzilishi sahifalar ketma-ketligiga tayanadigan chiziqlilik tamoyiliga bo‘ysunadi. Elektron lug‘atlar strukturasi gipertekst texnologiyasiga asoslangan bo’ladi, bu esa foydalanuvchiga lug‘at maqolalarining ixtiyoriy qismiga tezkor murojaat qilish imkonini beradi.

#### Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Zulkumor Xolmonova “Kompyuter lingvistikasi” Toshkent -2019.

2. Nilufar Abdurahmonova “Kompyuter lingvistikasi” Nodirabegim nashriyoti.

3. Manzura Abjalova “Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik moduli” Nodirabegim nashriyoti .Toshkent - 2020

4. Nilufar Abdurahmonova “Mashina tarjimasining lingvistik ta’mnoti “monografiya .Toshkent nashriyoti- 2018